MUXAMEDOVA Madina
O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
“San’at nazariyasi va tarixi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Mustaqil tadqiqotchisi (PhD)
E-mail: onaw82@mail.ru

O‘ZBEKISTONDA SAHNAVIY RAQS TUSHUNCHASINING SHAKLLANISHI VA ILK SAHNA RAQSI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): MUXAMEDOVA M. O‘zbekistonda sahnaviy raqs tushunchasining shakllanishi va ilk sahna raqsi // Madaniyat ta’limi – Культурное образование – Cultural Education. № 2 (2026) B. 15.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbekistonda sahnaviy raqs tushunchasining vujudga kelishi, uning xalq raqslari negizida shakllanish jarayoni hamda ilk sahna raqslarining yaratilish tarixi yoritiladi. Shuningdek, o‘zbek sahnaviy raqs san’atining rivojlanishida muhim o‘rin tutgan san’atkorlar faoliyati va milliy raqs maktablarining o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *sahnaviy raqs, xalq raqsi, xoreografiya, milliy madaniyat, Tamaraxonim, usta Olim Komilov, Mukarrama Turg‘unboyeva, o‘zbek raqs san’ati.*

МУХАМЕДОВА Мадина
старший преподаватель кафедры «Теория и история искусства»
Государственной академии хореографии Узбекистана
Независимый исследователь (PhD)
E-mail: onaw82@mail.ru

ФОРМИРОВАНИЕ ПОНЯТИЯ СЦЕНИЧЕСКОГО ТАНЦА И РАННИЕ ФОРМЫ СЦЕНИЧЕСКОГО ТАНЦА В УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются процесс возникновения понятия сценического танца в Узбекистане, его формирование на основе народных танцев, а также история создания первых сценических танцевальных постановок. Кроме того, анализируется деятельность выдающихся деятелей искусства, внесших значительный вклад в развитие узбекского сценического танца, и роль национальных танцевальных школ в становлении хореографического искусства.

Ключевые слова: *сценический танец, народный танец, хореография, национальная культура, Тамараханум, уста Олим Камилов, Мукаррама Тургунбаева, узбекское танцевальное искусство.*

MUKHAMEDOVA Madina
Senior Lecturer, Department of Theory and History of Art,
State Academy of Choreography of Uzbekistan
Independent Researcher (PhD)
E-mail: onaw82@mail.ru

THE FORMATION OF THE CONCEPT OF STAGE DANCE AND EARLY FORMS OF STAGE DANCE IN UZBEKISTAN

ANNOTATION

This article examines the emergence of the concept of stage dance in Uzbekistan, its formation on the basis of traditional folk dances, and the history of the creation of the first stage dance performances. The study also analyzes the activities of prominent artists who made significant contributions to the development of Uzbek stage dance and highlights the role of national dance schools in the formation of choreographic art.

Keywords: *stage dance, folk dance, choreography, national culture, Tamarakhonim, master Alim Kamilov, Mukarrama Turgunboyeva, uzbek dance art.*


O‘zbek xalqining boy madaniy merosida raqs san’ati alohida o‘rin tutadi. Milliy raqslar xalqning urf-odatlari, qadriyatlari va estetik qarashlarini o‘zida mujassam etgan bebaho san’at namunalaridir. Vaqt o‘tishi bilan xalq raqslari rivojlanib, professional sahna san’atining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Ushbu ishda O‘zbekistonda sahnaviy raqs tushunchasining shakllanishi, uning tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda ilk sahna raqslarining yaratilish jarayoni yoritiladi. Mavzu milliy xoreografiya merosini o‘rganish va uni kelajak avlodga yetkazish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqs xalqning estetik qarashlari, urf-odatlari, mehnat faoliyati va ma’naviy dunyosini aks ettiruvchi san’at turi sifatida asrlar davomida rivojlanib kelgan. Dastlab xalq orasida marosimlar, bayramlar va tantanalarda ijro etilgan raqslar keyinchalik professional sahna san’atining tarkibiy qismiga aylandi. Shu tariqa sahnaviy raqs tushunchasi shakllanib, o‘zbek milliy xoreografiyasining yangi bosqichi yuzaga keldi.

Bugungi kunda milliy madaniy merosni asrab-avaylash va uni yosh avlodga yetkazish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbek xalqining ko‘p asrlik madaniy merosi tarkibida raqs san’ati alohida o‘rin tutadi. Milliy raqslarning sahnaviy shaklga o‘tishi, professional xoreografiya san’atining shakllanishi va rivojlanishi nafaqat san’atshunoslik, balki madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Shu sababli O‘zbekistonda sahnaviy raqs tushunchasining shakllanishi va ilk sahna raqslari tarixini o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda sahnaviy raqs tushunchasining shakllanish jarayonini, uning tarixiy asoslarini va ilk sahna raqslarining yaratilish xususiyatlarini tahlil qilish.

Raqs insoniyatning eng qadimiy san’at turlaridan biri bo‘lib, u ibtidoiy jamiyat davridayoq marosimlar va urf-odatlarning ajralmas qismi sifatida shakllangan. O‘zbekiston hududida ham qadimdan raqs madaniyati rivojlangan bo‘lib, bu holat arxeologik topilmalar, devoriy rasmlar va tarixiy manbalarda o‘z aksini topgan.



O‘zbek xalq raqslari xalqning mehnat faoliyati, turmush tarzi, estetik qarashlari va milliy an’analari bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlandi. Asrlar davomida Farg‘ona, Buxoro va Xorazm raqs maktablari shakllanib, ular milliy xoreografiyaning asosini tashkil etdi. Farg‘ona uslubi nafis va mayin harakatlari bilan ajralib turadi. Buxoro raqslari tantanavorligi va murakkab plastikasiga ega bo‘lsa, Xorazm raqslari jo‘shqinligi va keskin harakatlari bilan mashhurdir.

Sahnaviy raqs tushunchasining shakllanishi sifatida sahnaviy raqs — xalq raqslari va an’anaviy harakatlarning professional sahna talablariga moslashtirilgan badiiy shaklidir. Sahna qonun-qoidalari asosida qayta ishlanib, badiiy kompozitsiya shaklida namoyish etilishidir. Ushbu tushuncha





O‘zbekistonda XX asrning birinchi choragida teatr san’ati va professional musiqa madaniyatining rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq holda shakllandi. 1920–1930-yillarda milliy teatrlarning tashkil etilishi va professional san’atning rivojlanishi natijasida xalq raqslarini sahnalashtirish ehtiyoji yuzaga keldi. Shu davrda raqslar ma’lum dramaturgik g‘oya asosida qurila boshladi, sahna bezaklari va musiqiy jo‘rlik bilan boyitildi.

Sahnaviy raqs xalq orasida ijro etiladigan oddiy raqslardan o‘zining kompozitsion yaxlitligi, estetik mukammalligi va badiiy ifoda vositalarining boyligi bilan farq qiladi.

Raqs harakatlari tizimlashtirilib, tomoshabinlarga tushunarli va ta'sirchan ko'rinishda namoyish etila boshlandi.

Sahnaviy raqsning shakllanishida teatr jamoalari, musiqali drama teatrlari va professional ansambllarning tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Raqslarning kompozitsion tuzilishi takomillashtirildi, harakatlar tizimlashtirildi va sahna estetikasi talablariga moslashtirildi. Natijada xalq raqslari tomoshabop va badiiy mukammal sahna asarlariga aylandi.

O'zbekiston hududida azaldan boy xalq raqslari mavjud bo'lgan bo'lsa-da, mumtoz raqsni teatrlashtirib, professional sahna san'ati darajasiga ko'tarish XX asrning 20–30 yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda o'zbek raqs maktabi xalq an'analari va zamonaviy xoreografiya uyg'unligida shakllangan. Dastlabki qadamlar va ilk ijodkorlar o'zbek sahna raqsi san'atining asoschilari sifatida Tamaraxonim va doirachi usta Olim Komilovlar e'tirof etiladi. Usta Olim Komilov milliy raqs san'atining yirik namoyandalaridan biri hisoblanadi. U xalq orasida saqlanib qolgan raqs harakatlarini yig'ib, ularni tizimlashtirdi va sahna talablari asosida qayta ishlab chiqdi. U ko'plab mashhur raqqosalarning ustoziga aylandi. Tamaraxonim o'zbek professional sahnaviy raqs san'atining asoschilaridan biri sifatida e'tirof etiladi. U milliy raqslarni sahnaga olib chiqdi, ularni xalqaro maydonlarda namoyish etdi va o'zbek raqs san'atining dunyoga tanilishiga katta hissa qo'shdi. [1, B.15-17]

1926-yilda tashkil etilgan ilk milliy konsert-etnografik ansamblida ashula va raqs uyg'unlashtirilib, sahnaga olib chiqilgan. Ushbu davrda yaratilgan dastlabki sahna raqslari: "Zang", "Gul o'yin", "Sadr", "Farg'ona rubobisi" kabi raqslar sahnalashtirildi.

Ilk o'zbek sahna raqslarining xalqaro miqyosdagi eng katta g'alabasi 1935-yilda Londonda o'tkazilgan Xalq raqsi festivalida bo'lgan. Bunda Tamaraxonim va usta Olim Komilov o'zbek milliy raqslarini jahon sahnasida yuksak mahorat bilan namoyish etib, oltin medallarga sazovor bo'lishgan. 1937-yildagi Moskvada o'tgan o'zbek san'ati dekadasi esa bu san'atni yangi bosqichga olib chiqdi. Keyingi rivojlanish davri 1930–1940 yillarda ilk milliy musiqali dramalar va syujetli sahna raqslari ("Farhod va Shirin" kabi) sahnalashtirildi. Bu jarayonda taniqli baletmeysterlar Mukarrama Turg'unboyeva va Isohor Oqilovlarning xizmatlari katta bo'lgan. Ular Farg'ona, Buxoro va Xorazm raqs uslublarini professional sahna talablariga moslashtirishgan. Ular o'zbek xoreografiya san'atining rivojlanishida muhim rol o'ynashdi. Ular yaratgan sahnaviy raqs kompozitsiyalari va ansambllar bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. [1, B.20]

Bu sahna raqslari haqidagi qimmatli ma'lumotlar va doira usullari keyinchalik bastakor hamda san'atshunoslar tomonidan maxsus kitoblarga jamlangan.

Shuningdek ilk sahna raqslari orasida “Pilla” raqsi ham muhim o‘rin tutadi. Ushbu raqsda ipak qurti parvarishi bilan bog‘liq mehnat jarayonlari nafis harakatlar orqali tasvirlangan. Raqs milliy mehnat madaniyatini sahna vositalari orqali ifodalashning yorqin namunasi hisoblanadi.

Keyingi yillarda yaratilgan “Tanavor”, “Bahor”, “Rohat” kabi raqslar o‘zbek sahnaviy raqs san’atining klassik namunalariga aylandi. Bu asarlar milliy xoreografiya san’atining badiiy imkoniyatlarini kengaytirib, uning professional darajaga ko‘tarilishiga xizmat qildi.

Mustaqillik yillarida o‘zbek milliy raqs san’atini rivojlantirish va ommalashtirishga alohida e’tibor qaratildi. Respublikada ko‘plab professional raqs ansambllari faoliyat yuritmoqda. Milliy raqs festivallari, xalqaro tanlovlar va madaniy tadbirlar orqali o‘zbek raqsi dunyo miqyosida keng targ‘ib qilinmoqda.

Bugungi kunda sahnaviy raqs milliy madaniyatning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, yosh avlodni estetik va ma’naviy jihatdan tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etmoqda. [2, B.140]

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda sahnaviy raqs tushunchasi xalq raqslarining ko‘p asrlik an’analari negizida shakllangan. XX asr boshlarida professional teatr va xoreografiya san’atining rivojlanishi natijasida milliy raqslar sahnalashtirilib, yangi badiiy shaklga ega bo‘ldi. Usta Olim Komilov, Tamaraxonim va Mukarrama Turg‘unboyeva kabi san’atkorlar bu jarayonning rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shdilar. Ilk sahna raqslari xalqning turmush tarzi, mehnat faoliyati va milliy qadriyatlarini aks ettirib, o‘zbek sahnaviy raqs maktabining shakllanishiga asos bo‘ldi. Bugungi kunda ushbu meros milliy madaniyatimizning muhim qismi sifatida rivojlanishda davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sagatov.Q. Muxamedova.M. O‘zbekiston madaniyati va san’ati fidoyilari. T.: Navro‘z nashriyoti. 2019
2. Muxamedova.M. Jahon va o‘zbek xoreografiya san’ati tarixi. T.: Fan ziyo nashriyoti. 2021
3. Avdeyeva. L. O‘zbek milliy raqsi tarixidan. T.: M.Turg‘unboyeva nomidagi “O‘zbekraqs” milliy raqs birlashmasi. 2001
4. Shokirov.O‘. Ashrafiy.F. Shokirova.I. O‘zbekiston madaniyati namoyondalari. T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2001
5. Авдеева Л. Из истории узбекской национальной хореографии. Т.: Институт искусствознания имени Хамзы. 1999

6. Avdeyeva. L. Mukarrama Turg‘unboyevaning raqsi. T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1989

7. Avdeyeva. L. O‘zbekiston raqs san’ati. T.: Badiiy adabiyot nashriyoti. 1960